

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 290 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана.....	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
To'irov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	125
Abirkulova Sohijjamol	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan)	130
Bakhrom Nomazov	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	136
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli	148
Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
Agroklasterlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish	155
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks	160
Juraev K. T.	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish	164
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda solliqlarning roli va ahamiyati.....	169
Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
Rahmatullayeva Dilbar Olimovna	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubi-yatini takomillashtirish..	181
Raxmatov Akmal Anvar o'g'li	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
Rofeeva Rukhshona Shavkatovna	
Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash tizimi.....	192
Sabirova Asal Shuhratovna	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region	196
Shakhzod Zokhidov	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish	202
Kadirova Shaxnoza Ilhomovna	
Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
Usmonov Baxodir Suvonqulovich	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari	211
Nasimov Shavkat Vasiyevich	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
Zunnunova Xulkar Muxtorovna	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish	225
Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari	229
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
Eshonqulov Azamat Abdiraximovich	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlarini yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari.....	245
Xidirov Alimardon Dagarovich	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English	248
Nilufar Turdiyeva	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati	252
Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	256
G. Sh. Qo'ldosheva, A. J. Toshboyev	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации	260
Каюмова Паризода	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari...	266
G. I. Abdulxamidova	
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива	272
Shahzad Zokhidov	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise	275
Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан	282
Холбекова Дилобар Расулжон кизи	



TEMIR YO'L TRANSPORTIDA YO'LOVCHI TASHISH IMKONIYATLARINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDOSHUVLARI

G. I. Abdulxamidova

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari va yo'nalishlari, xorijiy mamlakatlar tajribasi, statistik ko'rsatkichlarning tahlili, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning holati, iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari, amaliyotdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan bir qator masalalar ilmiy jihatdan bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Temir yo'l transporti, innovatsiya, zamonaviy yondoshuv, xorijiy tajriba, statistic ko'rsatkichlar, "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati.

Abstract: In this article, modern approaches and directions of increasing passenger transport capacity in railway transport, experience of foreign countries, analysis of statistical indicators, the state of reforms carried out in our country, scientific views of economists, existing problems in practice and their elimination are presented. a number of issues are scientifically explained.

Key words: Railway transport, innovation, modern approach, foreign experience, statistical indicators, joint-stock company "Uzbekistan Railways".

Аннотация: В данной статье рассмотрены современные подходы и направления повышения пассажироперевозок на железнодорожном транспорте, опыт зарубежных стран, анализ статистических показателей, состояние реформ, проводимых в нашей стране, научные взгляды экономистов, существующие проблемы на практике и их устранение. ряд вопросов получили научное объяснение.

Ключевые слова: Железнодорожный транспорт, инновации, современный подход, зарубежный опыт, статистические показатели, АО "Узбекские железные дороги".

KIRISH

Buguni kunda mamlakatimizda Temir yo'l transporti davlat transport sohasidagi eng muhim transport tizimlaridan biri bo'lib, hududlarimizni o'zaro bog'laydigan, aholini va yuk vositalarini tashishga mo'ljallangan transport turlaridan biri hisoblanadi.

Temir yo'l transporti mamlakatimizdagi transport xizmatlarini ichida asosiy transport xizmatining ajralmas qismi sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Xususan, Temir yo'l transporti O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim transport tarmog'laridan biri bo'lib, hozirgi kunda Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish bilan bo'lgan bir qator ko'plab hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar mavjud, mazkur masalalarni bartaraf etishda Temir yo'l transporti sohasida zamonaviy imkoniyatlarni amaliyotga tatbiq etish yangi innovatsion yondoshuvlardan biri sanaladi.

Temir yo'l transporti transport xizmatlarini ichida eng ko'p foydalanib kelinayotgan, o'zining rivojlanish tarixiga ega bo'lgan, uzoq yillardan beri aholini va yuk vositalarini tashishga xizmat qilayotgan va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo'shayotgan transport sohasining yirik tarmog'i sifatida namoyon etib kelmoqda. Temir yo'l transport sohasida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini yanada rivojlantirish, yo'lovchilar oqimining salmog'ini oshirish hamda yangi yondoshuvlarni amaliyotga keng qo'llash maqsadida, Muhtaram, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda Temir yo'l transporti sohasini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab yangi amaliy islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi Temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-329-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, Temir yo'l sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator quyidagi dolzarb vazifalar belgilab berildi. Jumladan:



- temir yo'lida tashish xizmatlari bozorida raqobatni shakllantirish va jozibador investitsiya muhitini yaratish orqali tashish jarayonlariga xususiy investitsiyalarni jalb qilish;
- temir yo'l sohasini transformatsiya qilish va raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish, xizmatlar ko'rsatish jarayonining uzluksizligi, sifatligi, xavfsizligi, barqarorligi va ishonchligini ta'minlash;
- temir yo'l korxonalarining moliyaviy holatini mustahkamlash, yo'lovchi va yuk tashishda tannarx va xarajatlarni kamaytirish, operatsion samaradorlikni ta'minlash borasida hisobdorlik va rag'batlantiruvchi muhitni yaratish;
- tadbirkorlik subyektlari uchun temir yo'l orqali yuk tashish xizmatini ko'rsatuvchi vagon operatorlarini erkin tanlash huquqini ta'minlash;
- temir yo'l xizmatlarini ko'rsatishda iqtisodiy va moliyaviy salohiyati yuqori bo'lgan yo'nalish va sohalarga mustaqil rivojlanish, shu jumladan mahalliy va xalqaro moliya bozorlariga chiqish hamda davlat ko'magisiz kredit resurslarini jalb qilish uchun imkoniyat yaratish;
- temir yo'l sohasidagi davlat ulushi mavjud kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimini tubdan yaxshilash, sohaga malakali xorijiy menejerlar va mutaxassislarni jalb qilish;
- yuk tashish xizmatlarini amalga oshirish, yuk vagon va konteyner xo'jaligini saqlash va rivojlantirish, multimodal "eshikdan eshikkacha" tashuvlarni yo'lga qo'yish, logistika markazlari va terminallarini tashkil etish bo'yicha "Temiryo'lkargo" AJ xizmatini joriy etish;
- yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezdlarda yo'lovchilarni tashish xizmatini ko'rsatish hamda yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezdlar xo'jaligini saqlash va rivojlantirish bo'yicha "Temiryo'lek-spress" AJ xizmatini yo'lga qo'yish;
- "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ tarkibida vokzallar faoliyatini ta'minlash bo'yicha "Temir yo'l vokzallari" MChJ va shahar atrofida yo'lovchilar tashish bo'yicha "Shahar atrofida yo'lovchi tashish" MChJ ^[1] xizmatini tashkil etish kabi bir qator dolzarb vazifalarni belgilab berilganligi, mazkur sohani 2030-yilga qadar eng rivojlangan sohalardan biriga aylanishiga xizmat qiladi.

Bundan ko'rinadiki, Temir yo'l transporti sohasini yanada yaxshilash, yo'lovchi va yuk tashish xizmatlarini rivojlanishiga zamin yaratib beradi. Temir yo'l sohasini rivojlantirishga, iqtisodiy samaradorligini oshirishga, sohani takomillashtirishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, biroq Temir yo'l transporti sohasida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan yangi innovatsion va zamonaviy yondoshuvlarga asoslangan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Mazkur tadqiqot ishini olib borilishi Temir yo'l sohasini rivojlanishiga, Temir yo'l transport xizmatini takomillashtirishga hamda yo'lovchi va yuk tashish imkoniyatlarini oshirishga, sohada yangi va zamonaviy innovatsion yondoshuvlarni amaliyotga tatbiq etilishiga zamin yaratib beradi. Natijada esa, Temir yo'l transporti tizimida yo'lovchi tashish imkoniyatlarining salmog'ini yuqori sur'atlarda o'sishiga xizmat qiladi.

ILMIY MUAMMONING QO'YILISHI

Temir yo'l transporti sohasini rivojlanishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, jumladan xorijlik olimlardan P.Romer, R.Xarrod, Ye.Domar, D.Xemberg, R.Solow, Y.Shumpeter, V.Rostou ^[2] singari olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida asosan Temir yo'l sohasidagi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlari o'rganilgan.

MDH olimlaridan T.Stankovich, A.Sichyov, A.Granberg, I.Runov, S.Jukov, M.Bekmagambetov, J.Kurganbayev, A.Kolesnikov, B.Balchi, Ch.Syanpin, R.Mirzayev, A.Strokov, M.Aliboyeva, V.Berejnyoy, Ya.Bronshteyn, Ye.Kaliyev, S.Panov, D.Xodjayev, K.Zoidov, A.Medkov, P.Azimov ^[3] singari olimlar tomonidan mintaqa transport infratuzilmasini muammolariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan G.Samatov, Y.Karriyeva, M.Ikramov, A.Shermuxeimedov, A.Zoxidov, A.Gulyamov, T.Qodirov, V.Yarashova va J.Fayzullayev[4] kabi olimlar tomonidan O'zbekistonda transport tizimini rivojlantirish muammolariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida transport tizimini boshqarish mexanizmining muammolari, uning makroiqtisodiy jihatlari va temir yo'l transporti korxonalarining asosiy kapitalini iqtisodiy nuqtayi nazardan baholashda metodologik yondoshuvlar tadqiq etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni ^[5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5647-son Farmoni ^[6].



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabrda "2018–2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3422-son Qarori ^[7] mazkur yo'nalishdagi belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan xorijiy, MDX va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida asosan Temir yo'l sohasini iqtisodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, sohadagi muammolarni aniqlash, infratuzilmani takomillashtirish va ustuvor vazifalarni belgilab olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganilgan.

Biroq, Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlariga qaratilgan dolzarb masalalar yetarlicha o'rganilmagan.

Shuning uchun ham, mamlakatimizdagi Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlarini ishlab chiqishga qaratilgan yangi taklif va tavsiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish zamon talabiga aylanib bormoqda. Mazkur muammolarga yechim topishga qaratilgan jihatlar ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi hamda tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mantiqiy fikrlash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, abstrakt fikrlash hamda ilmiy umumlashtirish kabi usullardan keng foydalanilgan. Mavjud metodologik yondoshuvlarga tayangan holda, maqolada Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va "O'zbekiston temir yo'llari" Aksiyadorlik Jamiyatining ma'lumotlari asosida olib borilgan ilmiy natijalardan keng foydalanilgan.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, Temir yo'l transporti Jahon amaliyotida eng rivojlangan transport turlaridan biri bo'lib, yo'lovchi tashish salmog'ining ulushi ham boshqa yo'lovchi tashish transportlariga nisbatan juda yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi. Boshqa transport turlariga nisbatan Temir yo'l transporti eng qulay va arzon transport turi sifatida baholanadi. Millionlab aholi qatlami mazkur Temir yo'l transport xizmatining doimiy mijosi sifatida Temir yo'l xizmatidan foydalanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Temir yo'l transporti rivojlangan davlatlarga AQSH, Xindiston, Yevropa davlatlari, Xitoy, Koreya, Yaponiya va Rossiya singari ko'plab davlatlar kiradi. Mazkur davlatlarda Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish xizmati har tomonlama rivojlangan imkoniyatlarga ega hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham rivojlangan davlatlar tajribasiga asosan Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini yanda oshirish uchun rivojlangan davlatlarda joriy etilgan yangi innovatsion va zamonaviy yondoshuvlarni amaliyotga tatbiq etish talab etiladi. Mamlakatimizdagi "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining statistik ma'lumotlarining tahliliga ko'ra, 2019-yil 1-yanvar holatiga aksiyadorlik jamiyatining asosiy yo'llarining umumiy uzunligi 6950 kilometrni tashkil etgan, shundan 2500 kilometr elektrlashtirilgan. Temir yo'lning yillik yuk aylanmasi mamlakatdagi barcha turdagi transportning umumiy yuk aylanmasining qariyb 25 foizini tashkil qiladi ^[8].

Bundan tashqari, 2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, transport sohasida qariyb 18723 ta korxona va tashkilotlar jalb qilingan. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ularning soni 1947 birlikka ko'pgan, o'sish sur'ati esa 11,6 % ni tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, temir yo'l transporti yuk aylanmasi hajmi 18702,3 mln. t-km.ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 958,6 mln. t-km.ga yoki 5,4 % ga o'sish kuzatgan. Hozirgi kunda O'zbekistonda temir yo'llar qurish va yagona temir yo'l tarmog'ini yaratishga juda katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, birinchi qurilish uzunligi 700 km bo'lgan Navoiy-Uchquduq-Sultonuvaystog-Nukus temir yo'l liniyasi hamda Amudaryo bo'ylab uzunligi 681 m bo'lgan Markaziy Osiyodagi yagona zamonaviy Birlashgan temir yo'l va avtomobil ko'prigi qurilishi amalga oshirildi.

Undan so'ng, Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'l liniyasi bo'lib, uning uzunligi 223 km tashkil etadi, bu esa yuk va yo'lovchi tashish masofasini 170 km.ga qisqartirish imkoniyatini berdi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda umumiy uzunligi 1200 km dan ortiq bo'lgan yangi temir yo'l tarmog'i kengaytirilishi amalga oshirilib, 3800 kmdan ortiq temir yo'llar modernizatsiya va rekonstruksiya qilinib, qariyb 1100 km temir yo'l liniyalari elektrlashtirilishga erishildi. Natijada esa, mamlakatimizning barcha hududlarini qamrab olgan temir yo'llarning umumiy uzunligi 6500 km.ga yetkazildi ^[9].

Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda Temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashish 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy foydalanishdagi magistral temir yo'l transporti orqali qariyb 9 mln. yo'lovchi tashilgan bo'lib, yo'lovchi tashish hajmi 2021-yil bilan solishtirilganda 13,1 %ga oshgan. 2022-yilda bir kunda o'rtacha 24,6 ming nafar yo'lovchi temir yo'l transportidan foydalangan. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy foydalanishdagi magistral temir yo'l transporti orqali jami 73,6 mln. tonna asosiy turdagi yuklar tashilgan ^[10].




Mamlakatimizdagi “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining statistik ma’lumotlariga ko‘ra, quyidagi 1-jadvalda 2022–2023-yillarda Temir yo‘l aksidorlik jamiyatidagi ko‘rsatkichlarning tahlili ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu 1-jadvalda asosan 2022-yilda erishilgan natijalarni 2023-yilga nisbati va farqi ko‘rsatib berilgan bo‘lib, Tashilgan yo‘lovchilar, ming.odam ko‘rsatkichiga ko‘ra, 2022-yilda 2097,1 ming.odam tashilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 2 502,2 ming.odamga yetgan. Farqi esa, 119,3 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

1-jadval: Temir yo‘l aksiyadorlik jamiyatining 2022–2023-yillardagi ko‘rsatkichlarining tahlili¹

№	Asosiy ko‘rsatkichlar	Yillar		Farqi %
		2022-yil	2023-yil	
1.	Jo‘natilgan yuk ming.tonna	73500,0	73674,8	100,2
2.	Yuk aylanmasi mln.tonna-km	25 500,5	27 000,0	105,9
3.	Tashilgan yuklar, mln.tonna	105 000,0	109 000,4	103,8
4.	Yo‘lovchilar aylanmasi, mln. Yo‘lovchi-km	9013,0	9 626,2	106,8
5.	Jo‘natilgan yo‘lovchilar, ming. odam	9139,2	9 809,7	107,3
6.	Tashilgan yo‘lovchilar, ming.odam	2097,1	2 502,2	119,3
7.	Umumiy-ishchi-xodimlar soni, ming.odam	76,800	72,600	94,5
8.	Yangi tashkil etilgan ish joylar	2000	464	23,2
9.	Daromadlar, mlrd.so‘m	12510,5	12656,3	101,2
10.	Eksplutasion temir yo‘l uzunligi, km	4732,8	4726,1	99,9
11.	Shu jumladan elektrifikatsiya yo‘li, km	1929,2	1933,9	100,2

Bundan ko‘rinadiki, Temir yo‘l transportida yildan-yilga yo‘lovchi tashish imkoniyatlari ortib bormoqda. Bunga sabab, amalga oshirilayotgan zamonaviy imkoniyatlarning natijasi hisoblanadi. Qolaversa, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining statistik ma’lumotlariga ko‘ra, quyidagi 1-rasmda mamlakatimizdagi Temir yo‘l transporti tomonidan 2022–2023-yillarda yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlarining tahlili keltirib o‘tilgan.



1-rasm: Mamlakatimizda 2022–2023-yillarda Temir yo‘l transporti orqali yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlari²

Ushbu 1-rasmdan ko‘rinadiki, yo‘lovchilar aylanmasi 2022-yilda 73500,0 mln yo‘lovchini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib esa, 73674,8 mln. yo‘lovchini tashkil etgan. Farqi esa 2023-yilda o‘shish sur‘atlarida ortib borayotganligini ko‘rsatib bermoqda.

1 Railway.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2 Railway.uz



Mamlakatimizdagi Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlarini joriy etish hozirgi kunda zamon talabiga aylanib bormoqda. Chunki, sohani rivojlantirish uchun yangi innovatsion yondoshuvlarni amaliyotga tatbiq etish sohadagi yangi imkoniyatlarni rivojlanishiga zamin yartaib beradi. Buning uchun muallif tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi 2-rasmda ko'rsatib o'tilgan, yangi innovatsion yondoshuvlarni amaliyotga tatbiq etish Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshishiga hamda iqtisodiy samaradorlikni o'sishiga xizmat qiladi.



2-rasm: Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari³

Ushbu 2-rasmda Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlarini 7 ta aniq yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, hozirgi kunda mamlakatimizdagi Temir yo'l transportida mazkur yo'nalishlarda bir qator ko'plab muammolar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun muallif tomonidan ishlab chiqilgan yuqoridagi zamonaviy yondoshuvlarni amaliyotga tatbiq etish yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi. Chunki, amaliyotda yuqoridagi aniq yechimlar asoslangan yo'nalishlar va yondoshuvlar ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ham mazkur yondoshuvlar Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish salmog'ini yuqori sur'atlarda o'sishiga va Temir yo'l transporti sohasidagi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizdagi Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlarini quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz, jumladan:

- temir yo'l transportida har oylik yo'lovchilar tashish reytingini ishlab chiqish va baholash lozim;
- amaliyotga bonusli kartalar tizimini tatbiq etish;
- yo'lovchilar tomonidan xizmatlar sifatini baholash imkoniyatini rivojlantirish;
- xarajatlar tizimini minimallashtirish va mahalliy xomashyo turlarini kengaytirish;
- alternativ Temir yo'l transport vositalarini rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish;
- yo'lovchilarni zamonaviy va innovatsion xizmatlarni joriy etish;
- yo'lovchilar madaniyatini rivojlantirish va arzon chiptalar tizimini tatbiq etish;
- yangi imkoniyatlarni sinovdan o'tkazishdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga keng joriy etilishi natijasida, Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari amaliyotga joriy etiladi hamda Temir yo'l trans-

3 Muallifning ilmiy-tadqiqot ishlari asosida ishlab chiqilgan.



portida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yuqori sur'atlarda o'sishiga erishiladi. Natijada esa, mam-lakatimizdagi Temir yo'l transporti sohasini rivojlanishi barqaror sur'atlarda o'sishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi "Temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-329-sonli Qarori, 2023-yil 10-oktyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategi-yasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish cho-ra-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5647-son Farmoni. 2019-yil 1-fevral.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018–2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tash-ishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3422-son Qarori. 2017-yil 2-dekabr.
5. Romer, P. M. (1990). Endogenous technological change. Journal of Political Economy, 98(5), S71 – S102.; Домар Е. "Очерки по теории экономического роста"-М.: МЭ и МО, 1956 г.
6. Станкович Т. Русский транзит: альтернативы и конкуренты. – М.: "Коммерсант", 2007. -215 с.;
7. Саматов Г.А. Дороги, которые мы выбираем. Они приближают Узбекистан к самым отдаленным частям света. // Рахбар-Менеджер, №32-33, 1999;
8. Fayzullayev J. "Temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2022-yil.
9. Kushakova M.N., Abdusoliyev A.I. "Temir yo'l transportini rivojlantirishning moliyaviy siyosatining tahlili va tamoyillari" 2021-yil.
10. Railway.uz
11. Stat.uz

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

